



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 312 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafoeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	
Bo'lajak talabalarining individual yondashuv asosida kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish	138
Arslonova Gulsora Kurbonovna	
Ona tili darslarida til kompetentsiyasini kognitiv-semantik yondashuv asosida shakllantirish	142
Mo'minova Go'zalxon G'ulamjanovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	147
Maxliyo Turotova Erkin qizi	
Talabalarining kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasida oshirish samaradorligi	153
Urinova Sabina Shuxrat qizi	
Imijning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqini	160
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna	
Inklyuziv kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari	163
Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	167
Abdurasulova Dilnoza Abdug'ani qizi	
Muxammas (taxmis) janrining o'zbek she'riyatidagi tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy poetik talqinlari	170
Avazova Sitara	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligining asosiy shakllari.....	173
Babayeva Dono Razzakovna, Erkinova Madinabonu Otabek qizi, Xolmatova O'g'li Tojiddin qizi	
Yangi taraqqiyot davrida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	177
Botirova Zohida Doniyor qizi	
Logoritmikada sportga asoslangan o'yinlar	180
Dilfuza Ochilova Zayniddinovna	
Jismoniy tarbiyaning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri (Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida).....	184
Ibragimov Shuhratbek Iminjonovich	



Bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning zaruriyati	188
Karimova Feruzaxon Zakirovna	
Effective Techniques of Teaching Foreign Language Classes: a Sample of The 4CS Method	191
Khaitmuratova Zarina Sobirdjanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual imkoniyatlarini tabiat bilan tanishtirish orqali shakllantirish ..	193
Maxmudova Durdona Mirkarimovna	
O'quvchilarning kasbiy ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	196
Mutallibjonov Ma'rufjon	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibini to'g'ri tashkil etish	200
Muxtorova Mohira Ma'rufjon qizi	
Aksiologik yondashuv asosida altruistik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish	204
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari	207
Norqulova Dildora Shavkat qizi	
Raqamlashtirish jarayonida bo'lajak muhandislarni ishlab chiqarish-texnologik faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-metodik ta'minoti	211
Nurov O'tkir Xudoyberdiyevich	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilish	214
O'roqova Zilola Salomovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida amaliy tayyorgarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati	217
Qaramanov Obid Xudayberdiyevich	
Pedagoglar uchun sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari	221
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich	
Talabalarda psixologik moslashuvchanlikda refleksiya mohiyati va kognitiv qobiliyatni rivojlantirish samaradorligi	226
Ravshanova Nargiza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish	230
S. Irisova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida marketing faoliyatini tizimli tashkil etishning nazariy asoslari	233
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Qo'chqorova Munisa Anvar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini xalq ertaklari asosida rivojlantirish	237
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Abduraufova Muxayyo Xabibullo qizi	
Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuv	241
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Sanoqulova Gulasal Nurillo qizi	
Sun'iy intellektni tibbiy oliy ta'lim o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qo'llash: innovatsion yondashuvlar va tajribalar	246
Toxirova Farida Olimjonovna	
Talabalarni estetik tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish modeli	251
Usarov Murodjon Mamarasul o'g'li	
Xalqaro kimyo olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda xalqaro baholash tadqiqotlariga asoslangan kreativ topshiriqlar va fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasi	254
Usmanov Baxtiyor Xabibullayevich	
Xoja (Sayyid Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxo'ja) va uning asarlarining o'zbek nasridagi o'ri va ahamiyati	258
Valijonova Mahzunabonu	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida diversifikatsiya: tizimli yondashuv va rivojlanish strategiyalari	261
Xakimova Sevara Shavkat qizi	
STEAM texnologiyasini nodavlat ta'lim tashkilotlarida ommalashtirishning ijobiy tomonlari	264
Xalokova Maksudaxon Ergashevna, Melnikova Zaynura	
Muhammad Sodik Qoshg'ariy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi	267
Moxira Niyozqulova Nuraliyevna	



Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (AQSh tajribasi).....	270
Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi	
Xalqaro baholash dasturlari mohiyati va ahamiyati	274
Vohidova Ibodat Hurmatullayevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv	277
Xujamiyarov Sa'dullo Choriyevich	
Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	281
Xusanova Dilraxon Botiraliyevna	
Talabalarning jismoniy tayyorgarligida suzish mashg'ulotlarining ta'siri	285
Zuxriddin Nasibovich Boboshev	
Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadryatlar asosida tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	289
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Dadabayev Akramjon Askaraliyevich	
Использование чат-ботов в образовательном процессе	294
Мадаминова Наргизахон Жахонгир кизи	
Формирование гендерной культуры детей старшего дошкольного возраста в контексте государственной стратегии Узбекистана	298
Намазбаева Лола Закировна, Тиллабаева Малика Хабибуллаевна	
STEAM технологии в дошкольном образовании	302
Садикова Дилафруз Хусановна	
Системная модель социально-эмоционального обучения в Узбекистане: интеграция подходов, основанных на школьном образовании и партнерстве семьи и школы	307
Санакулова Нигора	



BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV



Seitmuratova Venera Jumamuratovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası katta o'qituvchisi

Sanoqulova Gulasal Nurillo qizi

BT23-01 guruh, 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida psixologik yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Unda bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi hamda bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan tamoyillar tahlil qilinadi. Psixologik tayyorgarlik bolaning maktab muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvi va ta'lim jarayonida samarali ishtirok etishi va bu jarayon ularning psixologik, emotsional, aqliy va ijtimoiy rivojlanishi katta ahamiyat kasb etilishi haqida aytilgan. Maktabga muvaffaqiyatli moslashgan bola keyingi ta'lim jarayonida ham faol, ishonchli va barqaror bo'ladi. Shu bois maktabga tayyorlashda nafaqat savod o'rgatish, balki bolalarning psixologik tayyorgarligini ham shakllantirish zarur sanaladi.

Kalit so'zlar: maktabga tayyorgarlik, psixologik yondashuv, emotsional rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, individual xususiyatlar.

Abstract: This article highlights the importance of a psychological approach in the process of preparing children for school education. It analyzes principles aimed at taking into account the child's age and individual characteristics, emotional state, social adaptation, and the development of cognitive processes. Psychological readiness plays a significant role in a child's successful adaptation to the school environment and effective participation in the educational process, as this process greatly influences their psychological, emotional, intellectual, and social development. A child who successfully adapts to school will remain active, confident, and stable in subsequent stages of education. Therefore, in preparing children for school, it is essential not only to teach basic literacy skills but also to develop their psychological readiness.

Key words: school readiness, psychological approach, emotional development, social adaptation, individual characteristics.

Аннотация: В данной статье освещается значение психологического подхода в процессе подготовки детей к школьному обучению. В ней анализируются принципы, направленные на учет возрастных и индивидуальных особенностей ребенка, его эмоционального состояния, социальной адаптации, а также развитие познавательных процессов. Психологическая готовность имеет большое значение для успешной адаптации ребенка к школьной среде и эффективного участия в образовательном процессе, поскольку данный процесс оказывает значительное влияние на их психологическое, эмоциональное, интеллектуальное и социальное развитие. Ребенок, успешно адаптировавшийся к школе, будет активным, уверенным и устойчивым в дальнейшем образовательном процессе. В связи с этим при подготовке к школе необходимо формировать не только навыки грамотности, но и психологическую готовность детей.

Ключевые слова: подготовка к школе, психологический подход, эмоциональное развитие, социальная адаптация, индивидуальные особенности.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida bolani maktabga tayyorlash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktab ta'limiga muvaffaqiyatli kirish faqatgina bilim va ko'nikmalar bilan emas, balki bolaning psixologik tayyorgarligi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Psixologik yondashuv bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni maktab muhitiga moslashtirishga xizmat qiladi.

Maktabga borish – bolaning hayotidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Bu jarayon ularning psixologik, emotsional, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Maktabga muvaffaqiyatli moslashgan




bola keyingi ta'lim jarayonida ham faol, ishonchli va barqaror bo'ladi. Shu bois maktabga tayyorlashda nafaqat savod o'rgatish, balki bolalarning psixologik tayyorgarligini ham shakllantirish zarur sanaladi.

Psixologik tayyorgarlik – bolaning yangi sharoitga moslasha olishi, o'qituvchi va tengdoshlari bilan munosabatni yo'lga qo'yishi, o'quv faoliyatini ongli ravishda boshlashi uchun zarur bo'lgan emotsional, ijtimoiy va kognitiv ko'nikmalar majmuidir. Bugungi kunda ta'lim tizimining modernizatsiyalashuvi, yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi, o'quv dasturlarining yangilanishi bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligini yanada muhimroq masalaga aylantirmoqda. Maktabga tayyorlikni faqatgina o'qish va yozish bilan o'lchash yetarli emas. Bola psixologik jihatdan tayyor bo'lmasa, o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklar, qo'rquv, tortinchoqlik, ishonchsizlik, motivatsiyaning pasayishi kuzatiladi. Shu sabab, ushbu maqolada maktabga tayyorgarlikning psixologik omillari, psixologik yondashuvning mazmuni va metodlari keng tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Psixologik tayyorgarlik – bu bolaning maktab sharoitida o'qishga, ijtimoiy munosabatlarga va yangi mas'uliyatlarga moslashish qobiliyatidir. Bolaning maktab muhitiga moslashishga tayyorligi, o'qituvchining ko'rsatmalariga amal qilishi, o'quv jarayoniga ruhiy va emotsional jihatdan tayyorligi, shuningdek mustaqil fikrlashi va vazifani bajarishga bo'lgan ichki motivatsiyasidir [1:103b].

Psixologik tayyorgarlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:



1-rasm: Bolaning maktabga psixologik tayyorgarlik tamoyillari

Bularning barchasi birgalikda bolaning maktabga moslashuvini belgilaydi.

Emotsional tayyorgarlik -birinchi navbatda oila, ota-ona bolaga ishonch berishi, maktabni ijobiy tasvirlash, jarayon haqida to'g'ri tushuntirish orqali emotsional tayyorgarlikka katta hissa qo'shishi mumkin. Maktabga yangi kelgan bola ko'plab emotsional holatlarni boshidan kechiradi: hayajon, qo'rquv, ishonchsizlik, yangi sharoitga moslashishdagi qiyinchiliklar va boshqalar. Bunda pedagog bolaga asosiy suyanichig' va yordamchi bo'lishi kerak. Emotsional tayyorgarlikda bola his-tuyg'ularni boshqara olish, qo'rquvni yengish, o'z fikrini erkin ifodalash, yangi odamlar bilan muloqotga kirisha olish, stressga chidamlilik ko'nikmalari shakllanadi. Agar bola emotsional jihatdan tayyor bo'lmasa, maktabdagi dastlabki haftalarda ko'proq yig'lash, tortinchoqlik, darsdan bosh tortish holatlari kuzatiladi. Bu holatni tushungan pedagog har bir bolaga individual yondasha olish psixologik tamoyillar sirasiga kiradi.

Kognitiv tayyorgarlik – bolaning aqliy rivojlanish darajasi, fikrlash tezligi, eslab qolish, diqqatni jamlash, tahlil qilish qobiliyatlari. Bu jarayonda bolada mashg'ulotlar davomida elementar mantiqiy fikrlash, obyektlarni taqqoslay olish, rang, shakl, miqdor tushunchalarini ajratish, sabab-oqibatni tushunish, oddiy muammolarni hal qila olish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Maktabga chiqoyotgan bola asosiy tayanch kognitiv ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Bunda qisqa matnni eslab qolish, topshiriqlarni ketma-ket bajarish, diqqatni 10–15 daqiqa jamlay olish, tushunchalarni umimlashtirish, elementar fikr bildirish. Sababi kognitiv tayyorgarlik yetarli bo'lsa, bola o'quv jarayonida qiynalib qolmaydi.

Ijtimoiy tayyorgarlik – bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi, guruhda ishlashi, o'qituvchini hurmat qilishi, sinfdoshlar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Bu asosida bola salomlashish, navbatni kutish, janjalsiz muloqot qilish, o'yin yoki vazifa paytida hamkorlik, o'zini boshqarish, ijtimoiy qoidalarga rioya qilish ko'nikmalari shakllanib boradi. Maktab bolalar uchun jamiyatga kiradigan ilk katta bosqich ekan bu jarayonda ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyatli bo'lishi maktabni yaxshi ko'rib qolishiga katta ta'sir ko'rsatadi [2:77b].

Motivatsion tayyorgarlik - bolaning o'qishga bo'lgan ichki ishtiyoqi, o'rganishga qiziqishi. Bunda oila munosabati, o'qituvchining ijobiy qo'llab-quvvatlashi, pedagogik o'yinlar, muvaffaqiyatni rag'batlantirish tamoyillari asosiy o'rin egallaydi. Motivatsiyasi shakllangan bolada yangi bilim olishni xohish, topshiriqlarni bajarishda zavqlanish, qiynalganida sabr qilish ko'nikmalar shakllanadi.



Irodaviy tayyorgarlik – bolaning mustaqil ravishda vazifa bajarishi, qiyinchiliklarni yengishi, o'zini boshqara olishi. Maktab uchun eng zarur irodaviy ko'nikmalarda topshiriqni oxiriga yetkazish, e'tiborni saqlash, sabr-toqat, tartib-intizomli bo'lishni o'rganadi. Irodaviy tayyor bo'lgan bola tez tashvishlanmaydi, dars jarayoniga diqqat etibor qaratib o'tiradi.

Oila muhitining ta'siri. Bolaning maktabga tayyorlanishida oilaning o'rni beqiyosdir. Ota-ona bola uchun mehrli va sokin muhit yaratishi kerak, o'zlarini maktab haqidagi qo'rqinchli gaplardan tiyishi, muntazam suhbatlar bilan qo'llab-quvvatlab turishi, bolani mustaqillikka o'rgatishi va uning hissiyotini hurmat qilishi lozim [3:139 b.]. Ota-ona tomonidan ijobiy ruhiy atmosfera bo'lsa, bola maktabga ishonch bilan boradi. Shuning uchun ota-ona bolani rag'batlantirib turishi kerak.

Zamonaviy ta'lim metodikalari, masalan, o'yinli ta'lim va tajribaviy ta'lim psixologik tamoyillarga chuqur asoslangan. Ayniqsa, o'yinga asoslangan ta'lim maktabgacha yoshdagi bolalar uchun samarali yondashuvdir, chunki u o'yin-kulgini ta'lim natijalari bilan uyg'unlashtiradi. U ijodkorlikni rivojlantiradi, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, shu bilan birga hissiy va ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Amaliy faoliyat va hayotiy tajribalarni o'z ichiga olgan tajribaviy ta'lim bolalarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga yordam beradi [4:267b.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik psixologik yondashuv va metodlar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagi psixologik metodlardan foydalanishlari lozim:

1. **Moslashuv haftaliklari.** Dastlabki hafta o'yinlar, suhbatlar, yengil mashg'ulotlar asosida tashkil etiladi.
2. **Psixologik treninglar.** "Men maktabdaman", "O'zimni tanlayman", "Mening hissiyotim" kabi treninglar.
3. **Rasm chizish orqali diagnostika.** Bola rasm orqali qo'rquvini, o'z kayfiyatini ifodalay oladi.
4. **Rol o'ynash o'yinlari.** O'quvchi-o'qituvchi roli orqali moslashuv osonlashadi.
5. **Stress kamaytiruvchi mashqlar.** Nafas mashqlari, musiqali dam olish, relaksatsiya.
6. **Maqtov va rag'batlantirish.** Bu bola o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi.
7. **Individual yondashuv.** Har bir bolaning psixologik xususiyatiga ko'ra metodlar tanlanadi.

Mazkur tadqiqotda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida psixologik yondashuv tamoyillarini o'rganish va tahlil qilishga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy usullar uyg'unligiga asoslangan bo'lib, bolaning psixologik, emotsional, aqliy hamda ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini aniqlashni maqsad qilgan.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil metodi orqali pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi va umumlashtirildi. Ushbu tahlil bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuvning ilmiy asoslarini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, kuzatish metodi yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin, muloqot va ta'lim faoliyatidagi xulq-atvori, emotsional holati va ijtimoiy moslashuvi o'rganildi. Kuzatish natijalari bolaning maktab muhitiga tayyorgarlik darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotda suhbat va so'rovnoma metodlaridan ham foydalanilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari, pedagog-psixologlar hamda ota-onalarning bolalarning psixologik tayyorgarligi haqidagi qarashlari va tajribalari tahlil qilindi. Bu usullar orqali bolalarni maktabga tayyorlashda mavjud muammolar va samarali yondashuvlar aniqlandi.

Bundan tashqari, psixologik diagnostika metodlari orqali bolalarning bilish jarayonlari (diqqat, xotira, tafakkur), emotsional barqarorligi va ijtimoiy ko'nikmalari baholandi. Olingan natijalar tahlil qilinib, umumiy xulosalar chiqarildi. Tadqiqot natijalarini qayta ishlashda taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik tamoyillarning ahamiyatini ilmiy asosda yoritishga xizmat qildi.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, bolalarni maktabga tayyorlashda faqat akademik bilimlarga e'tibor qaratish yetarli emas. Psixologik yondashuv bolaning shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy ishlanmalar bilan solishtirilganda, emotsional va ijtimoiy tayyorgarlikning muhim ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ota-ona va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik psixologik tayyorgarlik samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabga moslashishning ilk 3–6 haftasi bolalarda psixologik barqarorlikning shakllanishi, o'quv faoliyatining yo'lga qo'yilishi va ijtimoiy jarayonlarga uyg'unlashishi uchun hal qiluvchi davr sanaladi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda psixologik yondashuv tamoyillarining ahamiyati nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Olib borilgan kuzatishlar, suhbatlar, so'rovnoma hamda psixologik diagnostika natijalari asosida bolalarning maktabga psixologik tayyorgarlik darajasi va unga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda psixologik tayyorgarlik bir necha muhim tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ularga emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, bilish jarayonlarining rivojlanganligi hamda o'quv motivatsiyasi kiradi. Kuzatishlar davomida emotsional jihatdan barqaror bo'lgan bolalar yangi muhitga tezroq moslashishi, tengdoshlari va o'qituvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi aniqlanildi.

Psixologik diagnostika natijalari diqqat, xotira va tafakkur kabi bilish jarayonlari yetarli darajada rivojlangan bolalarda o'quv faoliyatiga qiziqish yuqori ekanligini ko'rsatdi. Aksincha, bilish jarayonlari sust rivojlangan bolalarda maktab vazifalarini bajarishda qiyinchiliklar kuzatilgani aniqlandi. Bu holat bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida psixologik mashg'ulotlar va rivojlantiruvchi o'yinlarning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Suhbat va so'rovnoma natijalariga ko'ra, ota-onalar va tarbiyachilarning aksariyati maktabga tayyorgarlik jarayonida savod o'rgatishga ko'proq e'tibor qaratib, psixologik tayyorgarlik masalasini yetarli darajada hisobga olmayotgani ma'lum bo'ldi. Shu bilan birga, pedagog-psixologlar tomonidan olib borilgan maqsadli mashg'ulotlar bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishi va maktab muhitiga moslashuvini yengillashtirishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, psixologik yondashuv tamoyillari asosida tashkil etilgan tayyorlov jarayoni bolalarda mustaqillik, mas'uliyat va ijobiy o'quv motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday bolalar maktab faoliyatida faolroq ishtirok etib, o'quv topshiriqlarini bajarishda barqarorlik namoyon etadi.

Umuman olganda, olingan natijalar bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuvni ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qarash zarurligini ko'rsatdi. Psixologik tayyorgarlikka yetarli e'tibor qaratilgan taqdirda, bolalarning maktabga moslashuvi samarali kechadi va ularning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari ortadi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuv tamoyillariga asoslangan tizimli faoliyat ularning maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. Individual, emotsional va ijtimoiy jihatlarni hisobga olgan holda tashkil etilgan tayyorgarlik jarayoni bolalarning kelgusidagi o'quv faoliyati samaradorligini oshiradi. Mazkur bosqichga bola qanchalik puxta, ayniqsa psixologik jihatdan tayyor bo'lsa, uning keyingi ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari shunchalik barqaror bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bolalarni maktabga psixologik tayyorlash faqat maktabgacha ta'lim tashkilotlari yoki faqat oilaning vazifasi bo'lib qolmay, balki pedagog-psixolog, tarbiyachi va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyatini talab etadi. Bu jarayon kompleks, tizimli, ilmiy asoslangan bo'lishi lozim. Psixologik yondashuv samarali qo'llanilganda bola o'zini maktabda erkin tutadi, qo'rquv va hayajonlar kamayadi, irodaviy barqarorlik kuchayadi, bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyoj ortadi va eng muhimi – bola maktabni sevib qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, maktabga psixologik tayyorgarlikni shakllantirish – kelajak avlodning barkamol, mustaqil fikrlovchi, emotsional jihatdan barqaror, ijtimoiy faol va muvaffaqiyatli bo'lib voyaga yetishida hal qiluvchi ahamiyatga ega jarayondir. Shu bois, har bir pedagog va har bir ota-ona maktabga tayyorlov jarayoniga mas'uliyat bilan yondashishi, bolaning psixologik holatini doimiy ravishda kuzatib borishi, kerak bo'lganda qo'llab-quvvatlashi va to'g'ri psixologik yordam berishi zarur.

Bola maktabga tayyor holatda kelganida nafaqat ta'lim jarayoni yengillashadi, balki uning shaxs sifatida shakllanishi ham sog'lom, uyg'un va izchil kechadi. Demak, psixologik tayyorgarlik – bolalar ta'limidagi eng asosiy poydevor bo'lib, bu jarayonga jiddiy e'tibor qaratish kelajak avlodning muvaffaqiyati va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi : o'quv qo'llanma. – Toshkent : O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 103 b.
2. Fayzullayev Sh. N. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. – Samarqand, 2022. – 77 b.
3. Asqarova D. Q. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi : o'quv qo'llanma. – Toshkent : Navro'z, 2020. – 139 b.
4. Gaziyeva N. Sh. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolani maktab ta'limiga psixologik yondashuvlar asosida tayyorlash // – 2024. – Vol. 2, № 11. – B. 267. – ISSN 2938-379X.



5. Ilm yo'li variativ dasturi : (6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash). – Toshkent, 2018.
6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Ilk qadam : davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan 2-nashr). – Toshkent, 2022.
7. Seitmuratova V. J. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini ertaklar asosida rivojlantirish // Экономика и социум. – 2025. – № 6(133). – B. 824–830. – ISSN 2225-1545.
8. Seitmuratova V. J. Development of creative thinking of children aged 5–7 through Karakalpak folk tales and children's songs // International Journal of Pedagogics. – 2024. – Vol. 4, № 4. – P. 101–104. – ISSN 2771-2281.
9. Seitmuratova V. J. Competence-based approach to children's creativity through Karakalpak folklore in the Republic of Karakalpakstan // Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – № 18. – ISSN 2181-3035.
10. Klicheva Z. P., Seitmuratova V. J. Mektepke shekemgi jastag'ı balalardıń tayanış kompetenciyların qalıplestiriwde qaraqalpaq xalıq ertekleriniń áhmiyeti // Muğallım hám uzluksız bilimlendiriw. – 2025. – № 2/3. – B. 302–309. – ISSN 2181-7138.
11. Raxmatovna M. Y. The importance of developing technical creativity and engineering skills in preschool children. – 2025. – SHOKH Library.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.